XALQ DEPUTATLARI ROMITAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-028-2-40-K/24 Romitan tumani

Romitan tumanining 2025- yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga va Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 27 dekabrdagi 01/06/20-12-38/2231-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Romitan tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari 128880,6 mln.so‘m hamda mutanosib ravishda xarajatlari 128880,6 mln.so‘mga tasdiqlanganligi, shuningdek Romitan tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 1412,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Romitan tumani byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Romitan tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Romitan tumani mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun 1874,6 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Pulotov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Amonov), tuman soliq inspeksiyasi (B.G‘aybullayev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (N.Raximov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Pulotov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  BARNOYEV UMEDJON ISOYEVICH

Xalq deputatlari Romitan tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-028-2-40-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ромитан тумани бюджети даромадларининг
2025 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Контингент режаси	Маҳаллий режа
1	Фойда солиғи		
2	Айланмадан олинадиган солиқ	15 869 000,0	15 869 000,0
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	6 894 000,0	31 035 540,0
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 257 000,0	1 257 000,0
5	Акциз солиғи жами		9 538 240,0
-	алкоголь маҳсулотлари (пиводан ташқари)		
-	пиво		
-	бензин, дизель ёқилғиси ва газни охирги истеъмолчига реализация қилишда тўланадиган акциз солиғи		9 538 240,0
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	718 000,0	6 923 000,0
7	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	11 385 000,0	11 385 000,0
8	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	3 634 000,0	21 700 000,0
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	24 358 773,0	24 358 773,0
10	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ		80 000,0
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	542 000,0	6 458 000,0
12	Давлат улуши бўйича дивидендлар ва давлат корхоналари фойдасидан ажратмалар		
13	Давлат божи		
14	Йиғимлар		
15	Жарималар		
16	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	276 000,0	276 000,0

ЖАМИ	**64 933 773,0**	**128 880 553,0**

Xalq deputatlari Romitan tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-028-2-40-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 йил учун Ромитан тумани маҳаллий бюджетидан ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчиларга ажратиладиган маблағларнинг чекланган миқдорлари

минг сўм

№	Ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчилар номи	Чекланган миқдор
Харажатлар миқдори, жами		**128 880 553**
1	Мактабгача ва Мактаб таълими бўлими	*29 892 570*
	шундан:	
	"Менинг мактабим"	*2 527 854*
2	Тиббиёт бирлашмаси	*0*
	шундан:	
	Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги маркази	*0*
3	Маданият бўлими	*7 236 718*
4	Ёшлар ишлари агентлигининг ҳудудий бўлими	*5 513 000*
5	Спорт бўлими	*6 441 298*
6	Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бўлими	*2 351 000*
7	Қишлоқ хўжалиги бўлими	*4 123 419*
8	Ирригация бўлими	*1 924 280*
9	Иқтисодиёт ва молия бўлимларини сақлаш харажатлари	*2 209 000*
10	Давлат солиқ инспексияси	*0*
11	Ҳокимят	*44 075 963*
	шундан:	
	Ижтимоий кўникма марказлари	*109 000*
	Озодликдан маҳрум этиш жазосини ўтаб бўлган фуқароларга «дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети»	*23 100*
	Фуқаролар ташаббуси жамғармаси	*28 283 305*
	"Маҳалла бюджети" жамғармаси маблағлари	*2 645 000*
	Заҳира жамғармаси	*1 874 558*
12	Ҳокимят (Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги)	*827 015*
	шундан:	

	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Халқ қабулхоналарини сақлаш харажатлари	*235 000*
	Ахборот-кутубхона марказлари	*592 015*
13	Ҳокимят (Ободонлаштириш бошқармаси)	*24 286 290*
14	Бошқа ташкилотлар	*0*

Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-028-2-40-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 йилда Ромитан тумани маҳаллий бюджетига умумдавлат солиқлари ва бошқа мажбурий тўловлар ҳамда солиқ бўлмаган тўловлар бўйича белгиланадиган ажратма меъёрлари

фоиз ҳисобида

№	Маҳаллий бюджетноми	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи				Фойда солиғи				алкоголь маҳсулотлари (пиводан ташқари)				пиво				бензин, дизель ёқилғиси ва газни охирги истеъмолчига реализация қилишда тўланадиган акциз солиғи				Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ			
		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига	
		Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар
1	Ромитан тумани	0%	51%	100%	49%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	32%	100%	68%	0%	100%	100%	0%

№	Маҳаллий бюджет номи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи				Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ				Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ				Давлат улуши бўйича дивидендлар				Айлан мадан солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	якка тартибдаги тадбиркорлар учун қатъий миқдорда белгиланган солиқ	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Давлат божи	Жарималар	Йиғимлар
		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига
		Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар								
1	Ромитан тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%